O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2026, [15]
ISSN 2181-7324(Print)

IJTIMOIY FANLAR
http://journals.nuu.uz
ISSN 3093-8996(Onlayn)

UDK 1.740

Abdurashid M. MIRZAXMEDOV,
DSc, professor, Namangan davlat texnika universiteti, Namangan, O‘zbekiston
E-mail: Mirzahmedov@mail.ru, ORCID: 0000-0003-0635-4013,
Abdulla G.G‘ULOMOV,
Mustaqil tadqiqotchi, Namangan davlat texnika universiteti Namangan, O‘zbekiston
E-mail: Sotsial.nauki@gmail.com

NamDTU professori, f.f.d M.Ismoilov taqrizi asosida

SOCIAL FACTORS OF NATIONAL SECURITY

Annotation
The article is devoted to a socio-philosophical analysis of the scientific essence of the security of citizens, the basic principles and concepts of stability conditions at a new stage of society's development. National security is an integral part of international security, and its compatibility with the political aspects of State security is philosophically explained. The authors have developed a social concept of civil security in Uzbekistan based on the social dialectic of national security.
Key words: Security, national security, threats and risks, security guarantees

СОЦИАЛЬНЫЕ ФАКТОРЫ НАЦИОНАЛЬНОЙ БЕЗОПАСНОСТИ

Аннотация
Статья посвящена социально-философскому анализу научной сущности безопасности граждан, основных принципов и концепций условий стабильности на новом этапе развития общества. Национальная безопасность является составной частью международной безопасности, философски объясняется ее совместимость с политическими аспектами государственной безопасности. Авторы разработали социальную концепцию гражданской безопасности Узбекистана, основанную на социальной диалектике национальной безопасности.
Ключевые слова: Безопасность, национальная безопасность, угрозы и риски, гарантии безопасности.

MILLIY XAVFSIZLIKNING IJTIMOIY OMILLARI

Annotatsiya
Maqola jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida fuqarolar xavfsizligining ilmiy mohiyat mazmuni, barqarorlik shartlarining asosiy tamoyil va tushunchalarini ijtimoiy falsafiy taxlillariga bag‘ishlangan. Milliy xavfsizlik halqaro xavfsizlikning tarkibiy qismi, davlat xavfsizligining siyosiy jihatlariga uyg‘unligi falsafiy yoritilgan. Mualliflar fuqarolar xavfsizligining ijtimoiy dialektikasi asosida O‘zbekiston davlati milliy xavfsizligining ijtimoiy kontseptsiyasini ishlab chiqqanlar.
Kalit so‘zlar: Xavfsizlik, milliy xavfsizlik, taxdid va xatarlar, xavfsizlik kafolatlari.

Kirish. Kishilik jamiyatining postindustrial-lashuvining yangi to‘lqini global muammolarning keskinlashuvi, halqaro munosabatlarda davlatlar va xalqlarning umuminsoniy adolat me’yor va talablariga xurmatsizligi, nizo va mojarolarni diplomatik yo‘llar bilan echishdan ko‘ra xarbiy hal qilishga intilish bilan xarakterlanadi. Natijada, “Tarixning tugashi, oxirgi odam” yoki “Madaniyatlarning to‘qnashuvi” kabi bashoratlar real voelikka aylanishi xavfsizlik muammolari bilan jiddiy shug‘ullanishni talab etmoqda. O‘tmishda yopiq bo‘lgan xavfsizlik muammolari ijtimoiy fanlarda olimlarning qizg‘in baxs va munozaralarida o‘z mujassamini topmoqda [1; 2; 3].

Xavfsizlik kontseptsiyasining o‘ziga xos jihati zamonaviy halqaro munosabatlarning tartibga solishning qiyinligi bilan birga yirik davlatlar dunyoning tabiiy zahiraga boy o‘lkalarini o‘z ta’sir zonalariga tortish, davlatlararo kelishuv va shartnomalarning istiqbollarini oldindan aytib berishning murakkablashuvi bilan izohlanadi. Shu ma’noda Markaziy Osiyo davlatlari jahon hamjamiyatining diqqat markazida mintaqaviy muammolarni hal qilishga faol intilish bilan davlatlaro chegara va gidro nizolarni hal qilish yo‘lida sa’y-harakatlarni amalga oshirmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev “davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari qo‘riqlanadigan shaxslarning hayoti, sog‘lig‘i, sha’ni va qadr-qimmatini himoya qilishdan, qo‘riqlanadigan ob’ektlar xavfsizligini ta’minlashdan iborat” muhim me’yoriy aktni imzoladi. Shu ma’noda, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan davlat xavfsizlik xizmati fuqaroning shaxsiy hayotiga taalluqli bo‘lgan, uning sha’ni, qadr-qimmati yoki ishchanlik obro‘siga putur etkazadigan ma’lumotlarni sir saqlanishi, ularning tinch-osuda turmush kechirishini ta’minlash huquqiy mustahkamlandi [7].

Mintaqa xavfsizligida Afg‘onistonning o‘ziga xos siyosiy jihatlari, ayniqsa, Qo‘shtepa kanalining qazish ishlari bilan masalani yana bir bora siyosiy manfaatlarning to‘qnashuv nuqtasini hosil qilmoqda. O‘zbekistonning geosiyosiy joylashuvi, tabiiy zahiralari bilan yirik davlatlarning o‘rtasida ko‘z tikkan siyosiy manfaatlar nuqtasini hosil qilishini taxmin qilish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy-gumanitar fanlarda olimlar milliy xavfsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-harbiy, ma’naviy-axloqiy, diniy ekstremistik jihat va xususiyatlari yuzasidan tahlillarini ikki guruhga jamlash mumkin. Birinchi guruh tadqiqotchilar milliy xavfsizlikning kontseptual jihat va xususiyatlari, siyosiy-huquqiy omillari, xavfsizlik muammolarining optimallashtirishga doir fikr-mulohazarni olga surganlar [2; 3]. Ularning ilmiy tadqiqotlarida zamonaviy siyosiy reallik sharoitida xavfsizlikning murakkab huquqiy muammoga aylanishi, o‘z davlatlarining xavfsizlik nazariyalarini optimal variantlarda ishlab chiqishni ko‘zda tutadilar.

Ikkinchi guruh adabiyotlarda xalqaro xavfsizlikni ta’minlashda nufuzli xalqaro tashkilotlarning faoliyatida xavfsizlik muammolari taxlil etiladi [2; 10].

Uchinchi toifa ilmiy tadqiqotlarda yirik davlatlarning “Okeanizm” va “Kontinentalizm” konstruktsiyasida “Shimoliy Atlantika” Deklaratsiyasining xavfsizlikka oid xalqaro munosabatlar yangi bosqichining siyosiy jihatlarini taxlil etadilar [11; 12]. Evropaning kontinentalizm kontseptsiyasi Evroosiyo davlatlari, asosan Rossiyaning xarbiy taxdididan muhofaza muammolarini nazarda tutadi.

To‘rtinchi guruh manbalarda O‘zbekiston Respublikasida harbiy xavfsizlikka tahdid masalasi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy, davlat sarhadlariniing daxlsizligini har qanday harbiy tajovuzlardan kafolatli himoya qilishda O‘zbekiston qurolli kuchlarining etarli darajada tayyorgarligi tushuniladi. Shu ma’noda ilmiy tadqiqotlarda davlatning “Mudofaa” doktrinasi, “Davlat xavfsizligi” bilan bog‘liq huquqiy asoslar ishlab chiqilgan [8; 9;10].

Tadqiqotning metodologiyasi. Muammoga umumnazariy falsafiy yondoshuv asosida kuzatish, analiz va sintez bilan birga falsafiy umumiylik, alohidalik va xususiylik, mohiyat va hodisa, mazmun va shakl kategoriyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Mazkur falsafiy refleksiya usuli milliy xavfsizlikka an’anaviy yondoshuv bilan birga zamonaviy xavfsizlik kontseptsiyalariga raqobatbardosh milliy xavfsizlikning regionalizm kontseptsiyasini ishlab chiqishda qiyosiy solishtirma metoddan foydalanishni talab etadi. Bu hol O‘zbekiston milliy xavfsizligining halqaro xavfsizlik, milliy va davlat xavfsizligi bilan dialektik kontseptual taxlil va talqinlari har tomonlama mukammal ilmiy xulosalarni qilish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Eng muhim masala zamonaviy halqaro munosabatlarda O‘zbekistonning teng huquqli halqaro munosabatlarning sub’ekti, uning sarhadlarini tashqi harbiy tajovuz va bosqinlardan kafolatli muhofazasini ta’minlash uchun etarli darajada Mudofaa qobiliyatini shakllantirish doktrinasidir. Xavfsizlik davlat tomonidan fuqarolarning hayotini kafolatli muhofaza etish chora va tadbirlarni ko‘rishi, davlatga nisbatan qurolli yoki o‘zga tahdidlarni o‘z vaqtida bartaraf etishni ko‘zda tutadi. Halqaro va mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlashda BMTning tashabbuslari asosida amalga oshirilayotgan halqaro kelishuv va hamkorlik, tinchliksevar kuchlarning xavfsizlikka doir siyosatini e’tirof etish darkor. Shu bois “...davlat suverenitetini himoya qilish” O‘zbekiston Respublikasi Qurollli kuchlarining tuzilishi belgilangan [6].

Ilmiy lug‘atlarda milliy xavfsizlik “...qurol-yarog‘ ishlatish yo‘li bilan mamlakatning ozodligi, mustaqilligi, suvereniteti, davlat birligi, hududiy yaxlitligi, uning milliy mulki, milliy qadriyatlari va manfaatlariga qaratilishi mumkin bo‘lgan tahdid; harbiy bayonotlar; namoyishkorona harakatlar, shantaj, bosim, harbiy vositalarni ishlatish yo‘li bilan amalga oshiriladigan hatti-harakatlar, tasodifiy harbiy to‘qnashuvlar, shuningdek, tasodifiy yadro urushining yuzaga kelish imkoniyati. Uning manbalari quyidagilar: ekstremistik-ekspansiv maqsadlarda harbiy tazyiq qo‘llashning mumkinligini tan olinishidan kelib chiqadigan harbiy doktrinalar va harbiy siyosat; boshqa davlatlar harbiy qudrati, ularning mudofaa ehtiyojlaridan ortiq darajada kuchayishi, yadro qurolining mavjudligi va yadro urushi xavfining saqlanib qolishi; yadroviy imkoniyatni qo‘lga kiritishga intilayotgan bir guruh davlatlarning mavjudligi; harbiy-siyosiy notinchlikning keskinlashuvi (mintaqaviy va umumbashariy); harbiy-siyosiy keskinlik o‘choqlari va qurolli nizolarning davlat chegara hududida mavjudligi; harbiy razvedkalar faolligining o‘sishi; harbiy xavfsizlikka oid shartnomalarning buzilishi” ma’nosida ta’riflangan [13].

Xavfsizlik shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarining barcha jihatlarini o‘zida mujassam etuvchi ijtimoiy davlat suverenitetiga aloqador xalqaro va milliy huquqiy munosabatlarning huquqiy jihatidir. Davlatning xavfsizligi manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish, tahdidlarni bartaraf etish, o‘zaro manfaatli kelishuv va o‘zga hamkorlik haqidagi me’riy normalarning nazariya va amaliyoti hisoblanadi. Davlat xavfsizligi harbiy, iqtisodiy yoki madaniy jihatdan xavf-xatarlarni bartaraf etish orqali kutilayotgan siyosiy tanglikni oldini olishda o‘z ifodasini topadi.

Ijtimoiy xavfsizlikning falsafasi jamiyat hayotining barqaror taraqqiyotini ta’minlashda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-axloqiy xavf-xatarlarning oldini olish bilan fuqaroning himoyalanganlik kafolatlarini belgilab beradi. Yangi O‘zbekiston fenomenining mazmun mohiyatida “Inson manfaatlarining ustunligi”, “Xalqning davlatdan roziligi” tamoyillari fuqarolarning munosib turmush kechirishi, hayotiy farovonligini kafolatlash, deganda turli tuman xavf-xatarlardan muhofaza qilinishidir.

Milliy xavfsizlik zamonaviy davlat boshqaruvida ma’naviy-axloqiy deviant holatlari: diniy ekstremizm va teorrizm, milliy-diniy, siyosiy, xavf-hatarlar, iqtisodiy taraqqiyotda korruptsiya xavf-xatarlari xavfsizlikning umumiy taxdidlari bo‘lib qolmoqda. Bu hol axoli orasida yuksak ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni faol olib borish, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat ruhi yoshlarning ta’lim tarbiyasida muhim axamiyat kasb etmoqda. Fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtiroki Taraqqiyot strategiyasi maqsadlarining ijrosida oqilona hayot faoliyatini tashkili, sog‘lom turmush tarzi bilan xavfsiz turmush ta’minlanadi.

Xavfsizlik inson tirikligi, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-madaniy hayotini huquqiy kafolatli himoyalanganligi bilan izohlanadi. Shu ma’noda xavfsiz hayot kechirish fuqaroning ustuvor manfaati, davlat tomonidan ta’minlanadigan tabiiy huquqini ifodalaydi. Milliy xavfsizlik muammolarining ijtimoiy fanlardagi muammosi zamonaviy xalqaro munosabatlarda harbiy harakatlar orqali muammolarni hal qilish yangi siyosiy vositaga aylanishi bilan izohlanadi. Shu ma’noda, ilmiy adabiyotlarda Sovet Ittifoqining parchalanishi tufayli geosiyosiy oqibatlarni oldindan aytish qiyinligi milliy xavfsizlikka ehtiyoj tug‘dirmoqda. Ikkinchidan, dunyo davlatlarining vayronkor qurollanish poygasining avj olishi, xatto yadro quroliga ega bo‘lishga intilish bilan birga dunyoning yangi qiyofasida real o‘zgarishlar urush olovini yoqishga moyillik bilan ta’riflanmoqda [4, 12 b].

Jamiyatning xavfsizligida ijtimoiy tartiblarga zid xatti-harakatlar OAV, ayniqsa internet ta’sirida fuqarolarning tinchlik va xavfsizligiga taxdidlarning ma’naviy-mafkuraviy shakllari ijtimoiy taraqqiyot yutuqlariga soya solishi bilan o‘ta xavfli tus olmoqda

Xulosa va takliflar. Xavfsizlik insonning borliq bilan munosabatida o‘z manfaatlarini himoyalanganlik holati, invidual yoki jamoaviy hayotiy faoliyatini tinch va osuda kechishi uchun xavf-xatarlarni oldini olish, taxdidlarga qarshi kurashish, haq huquqini tinch yoki qurolli himoyasidir. Milliy xavfsizlik millatning o‘z milliy an’ana va qadriyatlari asosida suveren huquqlarga ega davlatchilik asoslarini mustahkamlash, unga bo‘ladigan ichki va tashqi tajovuzlarni bartaraf etish, fuqarolik maqomini ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-madaniy jihatdan himoyasini ta’minlashdir.

Milliy xavfsizlik davlat xavfsizligini ham anglatib, shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarini barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari uchun tashki va ichki xavf xatarlardan o‘zini himoya eta oladigan ijtimoiy-siyosiy kuch, siyosiy-xarbiy jihatdan hayotiy muhim sohalarini samarali boshqaruv tizimining funktsionallik ehtiyojidir. Milliy xavfsizlik axolining fuqarolik huquqlarining kafolatlari, qonun ustuvorligi asosida mulkiy va nomulkiy huquqlarining kafolatlari, davlat chegaralarining daxlsizligi, fuqaroning tinch va osuda hayotini ta’minlanishga qaratilgan ijtimoiy faoliyatdir.

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari milliy xavfsizlikni ta’minlash uchun etarli darajada harbiy mudofaa salohiyatiga egadir. Shu bilan birga, ta’limning barcha kesimida yoshlarning “Fuqarolik mudofaasi” bo‘yicha harbiy bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish, milliy mudofaa qobiliyatini kafolatlash uchun zahira harbiy kadrlarning tarkibiy qismlarini tayyorlash xavfsizlik doktrinasining muhim tamoyilidir. Milliy xavfsizlik jahon hamjamiyatining jamoaviy halqaro huquqiy me’yorlarga itoatkorlik, nizo va mojarolarning echimida diplomatik muzokaralar tamoyili, o‘zga davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik bilan muhim axamiyat kasb etadi.

Xavfsizlik jamiyat hayotida ijtimoiy tartibni o‘rnatilishi, unda IIV xodimlari fuqarolarning hayotiy faoliyatining xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan davlat xizmati bilan birga har bir fuqaroning amaldagi qonunlarning ijtimoiy nazorati uchun mas’uliyat, ichki va tashqi xavf-xatarlarni bartaraf etishda faol ishtiroki tushuniladi. Shu ma’noda xavfsizlik fuqarolarning milliy xavf-xatarlarni oldini olish, shaxs, jamiyat va davlat munosabatlarini himoyalanganlik darajasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Акаев У.Ю. Национальная безопасность: понятие, виды, формы обеспечения//Образование. Наука. Научные кадры. –2020. –№3. –С.94-95.
2. Беляев В.П., Чапчиков С.Ю. Оптимизация механизма обеспечения национальной безопасности России: некоторые направления// Актуальные проблемы российского права. 2018. –№ 9(94)–С.31-39
3. Ефимова О. С. Национальная безопасность в теории и законодательстве России// Lex Russica. –2016.–№ 10(119). –С.15-27.
4. Основы национальной безопасности: учебное пособие/ Бочаров Б. В., и др. – Красноярск, КГПУ им. В. П. Астафьева. 2008. –414 с.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 12-sentyabrdagi PQ-4447-sonli “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o‘tash tartibi to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida” Qarori //’ https://lex.uz/docs/-4513434.
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent.: O‘zbekiston. 2023. – B.76.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 6-iyuldagi O‘RQ-700-sonli “Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi Qonuni// https://lex.uz/docs/5491505
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 2-noyabr, 278-sonli “O‘zbekiston Respublikasi milliy xavfsizlik xizmati to‘g‘risida” Qarori// https://lex.uz/uz/docs/1027996.
9. O‘zbekiston Prezidentining 2018 yil 14 martdagi PF-5379-sonli “O‘zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni// https://kknews.uz/’uz/cs_docs_laws
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabr, PF-27-sonli “O‘zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Farmoni// https://lex.uz/uz/docs20574
11. Цыганков А.П. Смена эпох. Русское западничество и международные отношения // Россия в глобальной политике. -2024. -Т. 22. -№ 2. -С. 196–212.
12. Фризен А. Континентализм против неоевразийства: возрождение или развал Европы//https://globalaffairs.ru/articles/kontinentalizm.
13. Harbiy xavfsizlikkja tahdid// https://milliycha.uz/harbiy-xavfsizlik.